“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi masalalari

Azizaxon Allanova,
TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori v.b.
e-mail: azizaxon1001@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada ayrim xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish bilan bog‘liq qilmishlar uchun javobgarlik va jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi masalalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Turli mamlakatlarda davlat chegarasini buzish jinoyatlarining tarkibi, javobgarlik asoslari va protsessual yondashuvlari o‘rganilib, ularning o‘ziga xos va umumiy jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida xalqaro migratsiya, noqonuniy kirish va chiqish, davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlarga nisbatan xorijiy tajribaning milliy qonunchilikni takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Калит сўзлар. Davlat chegarasi, javobgarlik, hudud, fuqaro, havo, dengiz yoki daryo kemasi

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ вопросов ответственности за деяния, связанные с незаконным пересечением государственной границы, а также действия уголовного закона в пространстве в уголовном законодательстве отдельных зарубежных государств. Исследуются составы преступлений, связанных с нарушением государственной границы, основания уголовной ответственности и процессуальные подходы, применяемые в различных странах, выявляются их общие и специфические особенности. По результатам исследования обосновывается значение зарубежного опыта в сфере противодействия преступлениям, связанным с международной миграцией, незаконным въездом и выездом, а также незаконным пересечением государственной границы, для совершенствования национального законодательства.

Ключевые слова. государственная граница, ответственность, территория, гражданин, воздушное, морское или речное судно

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. This article provides a comparative legal analysis of liability for acts related to the illegal crossing of state borders and the territorial applicability of criminal law in the criminal legislation of certain foreign countries. The study examines the constituent elements of border-related offenses, the grounds for criminal liability, and procedural approaches applied in different jurisdictions, identifying both common and distinctive features. The findings substantiate the importance of foreign experience in combating crimes related to international migration, illegal entry and exit, and unlawful border crossing, highlighting its significance for improving national legislation.

Keywords. state border, liability, territory, citizen, aircraft, sea vessel, or river vessel

Davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, albatta, bu sohadagi munosabatlarni yanada chuqurroq tushunish, belgilangan normalarni qiyosiy tahlil qilish, amaldagi qonun hujjatlarida mavjud bo‘shliq va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, yer qa’rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat. Mazkur qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududi tushunchasi faqat davlat chegarasi ichidagi quruqlikni emas, balki hududiy suvlarni, shu jumladan qirg‘oq bo‘yi dengiz suvlarini va ichki suvlarni ham qamrab olishi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining hududi deb yer osti boyliklari (quruqlik va suvlar ostidagi) hamda quruqlik va suv ustidagi havo hududi ham tan olinadi. Orol dengizi Qozog‘iston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasida joylashib, uning O‘zbekiston chegara chizig‘i belgilangan qismi O‘zbekiston hududi hisoblanadi. O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan ajratib turuvchi chegara Amudaryoning o‘rtasidan o‘tgan chegara chizig‘i bilan belgilanadi. Ana shu quruqlik va suv chegarasining vertikaliga belgilangan atmosfera havzasi O‘zbekistonning havo hududi hisoblanadi. Ushbu chegara chizig‘i bilan belgilangan yerosti qismi O‘zbekistonning yerosti hududi hisoblanadi. Bu hududda jinoyat sodir qilgan har qanday aqli raso, qonunda belgilangan yoshga yetgan shaxs u qaysi davlatning fuqarosi ekanligidan, fuqaroligi bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, O‘zbekiston jinoyat qonuni bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi[1].

Bugungi globallashuv sharoitida hamda dunyodagi qaltis geosiyosiy vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tganlik uchun javobgarlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunga mamlakatimizning geografik joylashuvi, atrofimizdagi voqealar munosabati bilan tashqi siyosiy vaziyatning keskinlashgani, dunyoning ayrim

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mamlakatlaridagi qurolli mojaro tufayli beqarorlik o‘chog‘ining mavjudligi, shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hududiy da’volar sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, transmilliy jinoiy guruh va uyushmalarning ehtimoliy tahdidlari haligacha pasaymagan hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning mamlakatimizga noqonuniy migratsiyasi xavfi to‘liq hal etilmagan.

Davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlarning bugungi holatini baholashda xalqaro statistik ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. IOMning Missing Migrants Project ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda dunyo bo‘yicha migratsiya yo‘llarida kamida 8 938 kishi halok bo‘lgan va bu ko‘rsatkich qayd etilgan yillar ichida eng yuqori natija sifatida baholangan[2]. Bu raqamlar noqonuniy migratsiya va xavfli transchegaraviy harakatlar nafaqat huquqiy, balki inson hayoti va xavfsizligi bilan bog‘liq chuqur kriminologik muammo ekanini ko‘rsatadi.

Ushbu holatlar O‘zbekistonning amaldagi qonunchiligini, shu jumladan davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois, mazkur sohani jinoiy-huquqiy tartibga solish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Avvalambor, MDH davlatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning tarixan yagona SSSR tarkibida bo‘lganliklarini inobatga oladigan bo‘lsak, davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish bilan bog‘liq masalalarni jinoiy-huquqiy tartibga solish sohasida umumiy va o‘xshash yondashuvlar mavjud.

Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishini belgilovchi qoidaning mustahkamlanishiga ko‘ra ham O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonuni va ayrim MDH davlatlari jinoyat qonunlaridagi qoida o‘rtasida tafovut mavjudligi aniqlandi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, MDHning barcha mamlakatlarida (shu jumladan O‘zbekistonda ham) davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat-huquqiy normalar blanketlar normalar sifatida shakllantirilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasiga ko‘ra, belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish yoxud O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan o‘tish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Dispozitsiyadagi “belgilangan tartib” esa bevosita boshqa qonunchilik hujjatlariga havola qiladi.

Jinoyat kodeksi 246-moddasi, kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyovandlik vositalari,

ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish jinoyati dispozitsiyadagi “kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar” ham bevosita boshqa qonunchilik hujjatlarga havola qilish orqali hal qilinadi.

Jumladan, Jinoyat kodeksining 11-moddasida O‘zbekiston bayrog‘i ostidagi yoki O‘zbekiston portida ro‘yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amal qilishi belgilangan bo‘lsa-da, biroq O‘zbekiston Respublikasining harbiy havo, dengiz yoki daryo kemasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amal qilishi belgilanmagan.

Aynan mazkur qoida Rossiya (JK 11-m.), Qozog‘iston (7-m.), Belarus (5-m.), Ozarbayjon (11-m.) jinoyat qonunlarida ham belgilangan.

Qayd etish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq umumiy harbiy majburiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi[3]. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida chet el fuqarolari harbiy xizmat o‘tashiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shunga ko‘ra jinoyat sodir etilgan hududidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining harbiy havo, dengiz yoki daryo kemasida sodir etilgan jinoyat harbiy – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan sodir etilishini inobatga olib JK 11-moddasiga ushbu qo‘shimchaning kiritilishi maqsadga muvofiq.

Rossiya JK 11-moddasiga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasi hududida jinoyat sodir etgan shaxs Jinoyat kodeksi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Rossiya Federatsiyasining hududiy dengizi yoki havo hududida sodir etilgan jinoyatlar Rossiya Federatsiyasi hududida sodir etilgan deb tan olinadi. Ushbu kodeks kontinental shelfda va Rossiya Federatsiyasining eksklyuziv iqtisodiy zonasida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan ham qo‘llanadi. Rossiya Federatsiyasi hududidan tashqarida ochiq suv yoki havo hududida joylashgan Rossiya Federatsiyasi portiga biriktirilgan kemada jinoyat sodir etgan shaxs, agar Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeks bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu Kodeksga ko‘ra, Rossiya harbiy kemasida yoki harbiy havo kemasida jinoyat sodir etgan shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortiladi[4].

Qozog‘iston Respublikasi JK 7-moddasiga ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan shaxs JK bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. Qozog‘iston Respublikasi hududida boshlangan yoki davom etgan yoxud tamom bo‘lgan qilmish Qozog‘iston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi. Ushbu Kodeksning amal qilishi kontinental shelfda va Qozog‘iston Respublikasining alohida iqtisodiy zonasida sodir etilgan jinoiy huquqbuzarliklarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar Qozog‘iston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Qozog‘iston Respublikasi portiga biriktirilgan va Qozog‘iston Respublikasi hududidan tashqarida ochiq suv yoki havo bo‘shlig‘ida turgan kemada jinoiy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs JK bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. JK bo‘yicha, qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, Qozog‘iston Respublikasining harbiy kemasida yoki harbiy havo kemasida jinoiy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortiladi. Xorijiy davlatlarning diplomatik vakillari va immunitetdan foydalanadigan boshqa fuqarolar tomonidan Qozog‘iston Respublikasi hududida jinoiy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda ularning jinoiy javobgarligi to‘g‘risidagi masala xalqaro huquq normalariga muvofiq hal etiladi[5].

Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Qirg‘iziston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan jinoyat qonunining amal qilishi” deb nomlangan 13-moddasida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan shaxs ushbu Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortilishi, Jinoyat Qirg‘iziston Respublikasi hududida quyidagi hollarda sodir etilgan deb topilishi belgilab qo‘yilgan: 1) Qirg‘iziston Respublikasi hududida boshlangan, tugatilgan yoki to‘xtatilgan bo‘lsa; 2) Qirg‘iziston Respublikasi hududida sodir etilgan, oqibatlari esa uning tashqarisida yuz bergan bo‘lsa; 3) jinoyatlar majmuyi yoki boshqa qilmishlar bilan birga bosqichi Qirg‘iziston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyatni tashkil etadi. Amaldagi qonunlar va xalqaro shartnomalarga ko‘ra Qirg‘iziston Respublikasi sudlariga taalluqli bo‘lmagan xorijiy davlatlarning diplomatik vakillari va boshqa fuqarolarning jinoiy javobgarligi masalasi, ushbu shaxslar tomonidan Qirg‘iziston Respublikasi hududida jinoyat sodir etilgan taqdirda xalqaro huquq normalari asosida diplomatik yo‘l bilan hal etiladi[6].

Belarus Respublikasida Jinoyat kodeksi 6-moddasiga ko‘ra, Belarus Respublikasi hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan Belarus Respublikasi fuqarosi yoki respublikada doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, agar ular sodir etgan qilmishlar ular sodir etilgan hududdagi davlatda jinoyat deb topilgan bo‘lsa va JKning 11-qismida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, ushbu davlatda jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo‘lsa, JK bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. Mazkur shaxslarni hukm qilishda jazo ushbu Kodeks moddasining sanksiyasi doirasida tayinlanadi, biroq hududida jinoyat sodir etilgan davlatning qonunida nazarda tutilgan

sanksiyaning eng yuqori chegarasidan oshmasligi kerak. Belarus Respublikasi hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan chet el fuqarosi yoki Belarus Respublikasida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs Belarus Respublikasi manfaatlariga qarshi qaratilgan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etgan hollarda ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. JK qilmish sodir etilgan joyning jinoyat huquqidan qat’i nazar, quyidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llanadi: 1) genotsid (127-modda); 2) insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (128-modda); 3) urush olib borishning taqiqlangan vositalarini ishlab chiqarish, to‘plash yoki tarqatish (129-modda); 4) ekotsid (131-modda); 5) ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash (134-modda); 6) urush qonunlari va odatlarini buzish (135-modda); 7) qurolli mojarolar davrida xalqaro gumanitar huquq normalarining jinoiy buzilishi (136-modda); 8) qurolli mojaro vaqtida harakatsizlik qilish yoki jinoiy buyruq berish (137-modda); 81) odam savdosi (181-modda); 9) boshqa jinoyatlar[7].

Roman-german huquqiy tizimiga mansub mamalakatlardan quyidagi davlatlarning jinoyat qonunlarini ko‘rib chiqamiz:

Germaniya Jinoyat kodeksida jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishiga bog‘liq normalar 3 ta moddada ko‘rsatilgan bo‘lib, Germaniya Jinoyat kodeksi 3-moddasida jinoyat qonunining davlat hududida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan amal qilishi belgilangan. Kodeksning 4-moddasida Jinoyat qonunining Nemis kemalari samolyotlarda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan amal qilishi ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat sodir etilgan joyda qaysi qonun qo‘llanilishidan qat’i nazar, Germaniya jinoyat qonuni federal bayroqni ko‘tarish yoki Germaniya Federativ Respublikasining milliy belgisini ko‘tarish huquqiga ega bo‘lgan kema yoki samolyotda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan GFR jinoyat qonuni qo‘llanadi. 5-moddasida esa Xorij davlatida muayyan ichki aloqa bilan sodir etilgan jinoyatlar bilan bog‘liq normalar keltirilgan[9].

Fransiya Jinoyat kodeksi I kitobining 3-bobida jiniyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi bilan bog‘liq moddalar keltirilgan bo‘lib, ular Fransiya Respublikasi hududida sodir etilgan yoki sodir etilgan deb hisoblangan jinoyatlar (113-2-113-5) va Respublika hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlar (113-6-113-13). Respublika hududida sodir etilgan yoki sodir etilgan deb hisoblangan jinoyatlar qatoriga 113-2-moddasida belgilangan, Fransiya jinoyat qonuni Respublika hududida sodir etilgan jinoyatlarga tatbiq etiladi.

Fransiya jazoni qo‘llash qonuni fransuz bayrog‘i ostida suzayotgan kemalarda sodir etilgan jinoyatlarga, shuningdek, bunday kemalarga yoki u yerda bo‘lgan shaxslarga nisbatan, ularning qayerda bo‘lishidan qat’i nazar tatbiq etiladi. Faqat Fransiya milliy dengiz flotining kemalarida sodir etilgan jinoyatlar yoki bunday kemalarga yoki u yerda bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyatlarga faqat mazkur qonun tatbiq etiladi, ularning qaerda bo‘lishidan qat’i nazar, deb ko‘rsatilgan[10].

V. Fedyakov qayd etib o‘tganidek, hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida hududning ahamiyati juda ham katta, chunki u

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

oddiy makon emas, balki muayyan mamlakat fuqarolari yashaydigan muhit, alohida olib qaraganda, har bir davlat, umuman olganda esa butun insoniyat rivojlanishining moddiy bazasi hisoblanadi[11].

Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi ko‘plab yuridik, siyosiy va amaliy muammolar bilan bog‘liqdir. Globallashuv, transmilliy jinoyatchilik va aholining faol migratsiyasi sharoitida milliy huquqiy tizimlar o‘z harakatlarini muvofiqlashtirish zarurati bilan tobora ko‘proq to‘qnash kelmoqda.

Yuqoridagi qiyosiy-huquqiy tahlillar natijasi sifatida qayd etish lozimki, davlat chegarasini himoya qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy xavfsizlik talablari asosida takomillashtirish zarur. Bunda raqamli texnologiyalar, biometrik identifikatsiya, avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimlari, yagona elektron ma’lumotlar bazasi hamda idoralararo tezkor axborot almashinuvi mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Chegara, bojxona va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida yagona raqamli axborot almashinuvi tizimini yo‘lga qo‘yish, chegaraoldi hududlarda profilaktik hamkorlikni kuchaytirish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarur. Fuqarolarga davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o‘tishning huquqiy oqibatlari, qonuniy migratsiya tartiblari va qalbaki hujjatlardan foydalanish xavfi muntazam tushuntirib borilishi lozim.

Xususan, **Smart Border** mexanizmini ishlab chiqish: “Smart Border” tushunchasi raqamli texnologiyalar, biometrik identifikatsiya, avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimlari, videokuzatuv vositalari va sun’iy intellekt asosida ishlaydigan zamonaviy chegara boshqaruvi tizimini anglatadi. Ushbu tizim orqali shaxslarning hujjatlari, biometrik ma’lumotlari, migratsion holati va xavf darajasi tezkor tarzda tekshiriladi. Natijada inson omiliga bog‘liq xatolar kamayadi, qalbaki hujjatlardan foydalanish holatlari aniqlanadi hamda davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o‘tishga urinishlarning oldini olish imkoniyati kuchayadi.

“Pre-border control” mexanizmini amaliyotga tadbiq qilish va qonunchilikka joriy etish: mazkur yondashuvga ko‘ra, shaxs davlat chegarasiga yetib kelganidan keyin emas, balki undan oldin uning migratsion tarixi, viza ma’lumotlari, avvalgi huquqbuzarliklari, kirish-chiqish bo‘yicha cheklovlari, aviachipta xaridi va boshqa xavf omillari tahlil qilinadi. Bu esa chegarada tasodifiy tekshiruvlar o‘rniga xavfga asoslangan maqsadli nazoratni amalga oshirishga yordam beradi. Natijada qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish imkoniyati yanada oshadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik 2012. – 48 b. (Usmonaliyev, M., & Bakunov, P. Criminal Law (General Part): Textbook. 2012, p. 48.)

2. International Organization for Migration. 2024 is Deadliest Year on Record for Migrants, New IOM Data Reveal. 21.03.2025. https://www.iom.int/news/2024-deadliest-year-record-migrants-new-iom-data-reveals. (Murojaat etilgan sana: 10.05.2026)

3. O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002-yildagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi 436-II-son Qonuni 3-moddasi // https://lex.uz/uz (Law of the Republic of Uzbekistan No. 436-II of 12 December 2002 “On Universal Military Obligation and Military Service”, Article 3.)

4. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba // (Criminal Code of the Russian Federation. Electronic resource.) https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397073

5. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba (Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. Electronic resource.)// https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252

6. Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba (Criminal Code of the Kyrgyz Republic. Electronic resource.) // https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36675065&doc_id2=36675065#activate_doc=2&pos

7. Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba (Criminal Code of the Republic of Belarus. Electronic resource.) // https://continent-online.com/Document/?doc_id=30414984#pos=662;-28

8. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30418109#pos=650;-56

9. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p0015

10. Code penal de la France (22 juillet 1992) // Legifrance.gouv.fr (Le service public de la diffusion du droit) URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000006070719/LEGISCTA0000061

11. Федяков В.Ю. Правовые основы охраны Государственной границы Российской Федерации в воздушном пространстве: Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. – М., 2006. – С. 13. (Fedyakov, V.Y. Legal Foundations for the Protection of the State Border of the Russian Federation in Airspace: Abstract of the Dissertation for the Degree of Candidate of Legal Sciences. – Moscow, 2006. – P. 13.)